

53. Uch xonali sonlarni ayirish

Yondosh mavzu:
kiyim dizaynerlari

xonalar bo'yicha amallar
yuzliklar, o'nliklar, birliklar



$$\begin{array}{lcl} \text{dress} + \text{dress} & = & 80 \\ \text{dress} - \text{dress} & = & 30 \\ \text{dress} + \text{dress} & = & 70 \end{array} \quad \begin{array}{lcl} \text{dress} - ? & & \\ \text{dress} - ? & & \\ \text{dress} - ? & & \end{array}$$

1. Birinchi ifodaning qiymatini bilgan holda, qolganlarini hisoblang. Qaysi kasb yangi turdagi kiyim-kechak, poyabzal, bosh kiyimlarning yangi turlarini yaratishga yordam berishini bilib oling.

E $258 + 379 = 637$

E $379 + 258$

O $259 + 379$

Y $378 + 258$

D $637 - 258$

L $637 - 379$

M $637 - 259$

R $637 - 248$

378	638	379	637	258	636	637	389

Agar xonadan birlik olingan bo'lsa, ayirishda uni albatta hisobga olish kerak.

6	2	2		9	3	5	
2	7	8		6	3	7	
3	4	4		2	9	8	

2. Doiraviy misollarni yeching va kasb nomini ayting. Ushbu kasb egasi nima bilan shug'ullanadi?

$188 + 742$ **Q**

$721 - 628$ **CH**

$455 - 267$ **O'**

$93 + 204$ **I**

$297 + 158$ **T**

$930 - 654$ **U**

$276 + 445$ **V**

3. Tikilgan 980 ta shimdan 545 tasi Toshkentga, 230 tasi Samarqandga, qolganlari Nukusga jo'natildi. Nukusga nechta shim jo'natirgan?

53. Uch xonali sonlarni ayirish



4. Kiyim yaratishda qanday kasblar yordam beradi?
Sonlarni joylashtiring.



a) o'sish tartibida:

Q 605 **U** 655 **O'** 560 **T** 506 **V** 684 **I** 914 **CH** 905

b) kamayish tartibida:

K 290 **U** 92 **I** 902 **T** 920 **V** 89 **I** 65 **CH** 78



5. Xonatlasdan uzun ko'ylak tikish uchun 620 cm mato ketdi.
Kalta ko'ylak tikish uchun yana 135 cm mato ketdi.
Tikuvchi necha santimetr mato ishlatgan?



6. Uchta formuladan faqat bittasi to'g'ri. Uni toping. a , b va c harflar o'rniga berilgan sonlarni qo'ying.

$$a - (b + c) = a - c + b$$

$$a - (b + c) = a + c - b$$

$$(a + b) - c = a - b - c$$

$$a = 823,$$

$$b = 179,$$

$$c = 121$$



7. Lola bilaguzukdagi har bir to'rt qirrali binafsharang yulduzni ikkita dumaloq oq munchoq bilan almashtirishga qaror qildi. Endi unda qanday bilaguzuk hosil bo'lishini chizing.



8. Hisoblang.

$$765 - (198 + 218)$$

$$(740 - 356) + 374$$

$$514 - 336 + 15$$

$$785 - (523 - 264)$$

$$940 - (128 + 208)$$

$$812 - 785 + 89$$



9. Modalar ko'rgazmasiga O'zbekistondan uchta dizayner o'z modellarini olib keldi. Birinchisi 25 xil kiyim modelini, ikkinchisi birinchisidan 16 ta ko'p, uchinchisi esa birinchi va ikkinchisi birgalikda qancha bo'lsa, shuncha kiyim modelini namoyish etdi. O'zbek dizaynerlari jami qancha kiyim modelini olib kelishdi?